



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 21-iyun, № 126 (9021)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MEHNATSEVAR VA OLIYJANOB QASHQADARYO AHLI BILAN OLDIMIZGA QO'YGAN ULKAN MARRALARGA ALBATTA ERISHAMIZ

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish maqsadida 19-20 iyun kunlari Qashqadaryo viloyatida bo'ldi.



Ko'kdala tumanida 20 iyun kuni Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari viloyatda ulkan o'zgarishlar bo'layotgani, islohotlar odamlar hayotiga kirib borayotganini qayd etdi.

Oldinlari viloyat sanoatining yarmidan ko'pi neft-gaz va kimyo tarmog'iga to'g'ri kelardi. So'nggi yillarda elektr texnikasi, qurilish materiallari, to'qimachilik, mebelchilik sohalarda "katta sakrash" bo'ldi. Hozir bu tarmoqlarning sanoatdagi ulushi 54 foizni tashkil etyapti.

Lekin hayot to'xtab turmaydi, hali qilinadigan vazifalar ko'p. Tahlillarga ko'ra, Qashqadaryoda ishga solinmagan kamida 15 milliard dollarlik salohiyat bor. Bu imkoniyatlarning uchdan biri loyihaga aylantirilsa ham, viloyat yalpi hududiy mahsulotini kelgusi besh yilda bemaolol 10 milliard dollardan oshirish mumkin.

Ma'lumki, jadal rivojlanish dasturiga kirgan tumanlarda "Islohotlar shtabi" tuzilmoqda. Shahrisabz, Yakkabog' va Ko'kdalada ishga tushgan yangi loyihalar bunda tayyor andoza ekani ta'kidlandi. Endi shunday shtab viloyatning boshqa tumanlarida ham bo'lishi belgilandi.

Prezidentimiz viloyatni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni ko'rsatib o'tdi.

Eng katta xazira qishloq xo'jaligi yerlari ekani qayd etildi. Misol uchun, Qashqadaryodagi sug'oriladigan qishloq yerlari 515 ming gektarni, tomorqa va bog'dorchilik yerlari 45 ming gektarni tashkil qilib, respublikada birinchi o'rinda.

Bundan tashqari, viloyatda 1,3 million gektar yaylov va o'rmon yerlari mavjud. Endi ulardan samarali foydalanish uchun alohida kompaniya tashkil qilinadi. Investitsiya jalb qilish, loyihalarni

moliyalashtirish va ulush bilan kirish uchun unga aksiyadorlik jamiyati maqomi berilib, Kuzatuv kengashiga Bosh vazir rahbarlik qiladi. Kompaniyaga dastlabki bosqichda 100 million dollar ajratiladi. Bu mablag' va qo'shimcha investitsiya hisobiga, ikki yilda viloyatdagi kamida 200 ming gektar yaylov va o'rmon yerlari lazerli tekislanib, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi.

Qashqadaryoda chorvachilikni kompleks rivojlantirish dasturi boshlanadi. Buning uchun Qishloq xo'jaligi jamg'armasidan 12 oygacha 14 foizli kreditlar ajratiladi. Bu orqali viloyatdagi 127 ta chorvador to'liq quvvatga chiqadi. Yeri ham, fermasi ham borlarga imtiyozli mablag' beriladi.

Yil boshidan beri viloyatda mevasabzavot eksporti 2 karra oshib, 62 million dollarga yetgan. Ayniqsa, Ko'kdala tarvuzlari mashhur. Qashqadaryoda buni pomidor bo'yicha ham qilsa bo'ladi. Shu maqsadda 13 ta tumandagi 6 ming gektar yerda pomidor yetishtirish yo'lga qo'yiladi.

Kartoshkachilik uchun 10 foizdan 12 oy muddatga imtiyozli kredit ajratiladi. Bu tarmoqqa zarur texnikalar import bo'lgan odod etiladi, yuqori avlodli urug' xarid qilishda qo'shilgan qiymat solig'ining 50 foizi qaytarib beriladi.

Aholini ishli qilish va kambag'allikni qisqartirish eng dolzarb masalalardan. Yil boshidan 284 ming odamning bandligi ta'minlangani bilan yana minglab ishsizlar bor.

Shu bois bu yil Qashqadaryoda 470 ming kishini band qilish, 150 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shahrini "ishsizlik va kambag'allikdan xoli hudud"ga aylantirish bo'yicha katta marra olingan.

Xususan, Shahrisabz, Qamashi, G'uzor va Chiroqchi tumanlaridagi tabiat qo'shalarida turizm maskanlari barpo etiladi. Ko'kdaladagi

Chiyal bozorida yaxna tayyorlovchilar uchun sharoit va sanitariya yaxshilani, gastronomik turizm kengaytiriladi. Shahrisabz shahri Qorasuv mahallasida temirchilik markazi tashkil qilinadi.

Ishsiz fuqarolar xorijiy tillarga o'qitilib, yuqori daromad beradigan mamlakatlarga ishga yuboriladi. Auktsionda sotiladigan 120 dan ortiq obyekt va 400 gektar yer negizida korxonalar tashkil etib, 70 ming ish o'rni ochish choralarini ko'riladi.

Bu yil Qashqadaryoda 3,5 milliard dollar investitsiya bo'yicha katta marra olingan. O'tgan besh oyda Koson, Kitob va Chiroqchida investitsiya qariyb 2 karra oshgan.

Viloyatdagi konlar investitsiya jalb etib, qo'shilgan qiymat yaratish uchun katta imkoniyat ekani qayd etildi. Masalan, Kitobdagi 5 ta istiqbolli maydonda 39 tonna oltin, Chiroqchida 10 ming tonna noyob metallar zaxirasi aniqlangan. Qurilish materiallari sohasida 150 million dollarlik 16 ta loyiha tayyorlangan.

Muborakdagi gazni qayta ishlash zavodi atrofidagi infratuzilmadan foydalanib, 200 gektar maydonda innovatsion sanoat zonasini tashkil etiladi. Unda klaster tizimi asosida neft-kimyo, elektrotexnika, robototexnika va qurilish materiallari bo'yicha 5 ta yirik loyiha amalga oshiriladi.

Viloyat paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, to'qimachilik sanoatidagi ulushi 10 foizga ham yetmaydi. Bu sohada 400 million dollarlik 35 ta loyiha boshlanadi. Joriy yil ip-kalavani qayta ishlash 51 foizga, kelgusi yili 100 foizga yetkazish choralarini ko'riladi.

Bunday iqtisodiy loyihalar uchun rivojlangan infratuzilma zarur. Masalan, G'uzor – Buxoro – Nukus – Beynov yo'lining viloyatdan o'tgan 100 kilometrini rekonstruksiya qilish hisobiga tranzit salohiyatini 3 karra oshirish mumkin.

Qarshi – Shahrisabz – Kitob magistral yo'lining 106 kilometri rekonstruksiya qilinib, 2 tasmdan 4 tasmda o'tkaziladi. Bu loyiha doirasida Qamashi va Yakkabog' markazidan aylanib o'tadigan 34 kilometri yangi yo'l ham barpo etiladi. Islom taraqqiyot banki ishtirokida Toshkent – Termiz yo'lining Qashqadaryodan o'tgan 60 kilometri ham 4 tasmda qilinib, sement-beton qoplamaga o'tkaziladi.

Aholining turmush sharoitlarini yaxshilash uchun 7 ming 700 ta xonadonli uyjal barpo etiladi. Bu yil 183 kilometr suv va kanalizatsiya tarmog'i, 8 ta suv inshooti quriladi.

Yig'ilishda yoshlar bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Ularni "Yoshlar biznesi" dasturiga, oliygoh bitiruvchilarini "Kelajakka qadam" dasturiga qamrab olib, tadbirkorlik va bandligiga ko'maklashish vazifasi qo'yildi.

Ko'rib turganingizdek, Qashqadaryoda rejalashtirilgan ishlarimiz ko'p. Amir Temurdek buyuk ajdodimizdan jasorat, matonat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini meros qilib olgan mehnatsevar, samimiy va oliyanob viloyat ahlilari bilan oldimizga qo'ygani ulkan marralarga albatta erishamiz. Aminmanki, qashqadaryoliklar barcha islohotlarimizning oldingi safida bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan viloyat va tuman hokimlari, tarmoq rahbarlari axborot berdi, tadbirkorlar va jamoatchilik vakillari bilan muloqot qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani ma'muriy markazidagi ulkan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Bu tuman davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholiga qulayliklar yaratish,

urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida uch yil avval tashkil etilgan edi. Shundan so'ng hudud rivoji jadallashib ketdi. Bugun Yetitimon yaqinida yangi shahar paydo bo'lmoqda.

Avvalo, 120 kilometr suv, 210 kilometr elektr tarmog'i qurilib, zarur infratuzilma yaratildi. Yo'llar kengaytirilib, ta'mirlandi. Ma'muriy binolar, 19 ta maktab, 22 ta bog'cha, ko'p tarmoqli shifoxona va oilaviy poliklinika barpo etildi.

E'tiborlisi, tuman hokimligi binosi mamlakatimizda yangi tajribaning boshlanishi bo'ldi. Bu yerda 38 ta davlat idorasi bir joyda jamlangan. Bu aholiga katta qulaylik yaratmoqda. Avvallari biror yumush yuzasidan olis masofalarni bosib, Chiroqchi tumani idoralariga qatnagan fuqarolar endi barcha xizmatlarni o'ziga yaqin joyda olyapti.

Prezidentimiz Ko'kdaladagi bunyodkorlik, bunday yaxlit va mutanosib sharoitlar barcha tumanlar uchun namuna ekanini ta'kidladi.

Xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi ham hokimlik binosida joylashgan. Bu yerda aholi uchun ijtimoiy xizmatlar va yordamlar bir nuqtada kompleks shaklda taqdim etiladi. Uning dasturiy tizimi 55 ta daxldor tashkilotlarning ma'lumotlari bilan integratsiya qilingan. Bolalar, nogironligi bor insonlar, keksalar va ijtimoiy to'lovlar tizimi o'zaro bog'langan.

Davlatimiz rahbari tuman markazidagi Yetitimon kichik sanoat zonasida ham bo'ldi.

To'rt gektar maydonda to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish va xo'jalik mollari kabi yo'nalishlarda qiymati 10 million dollarlik to'qqizta kichik loyiha joylashtirilgan. Masalan, "Komfort Star New" korxonasi ishlatish qozonlari va boshqa temir mahsulotlar, "Komfort Industrial Aria" da

chinni buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Umuman, sanoat zonasida 600 dan ortiq doimiy ish o'rinlari ochiladi.

Prezidentimiz yangi bunyod etilgan san'at saroyini ham borib ko'rdi.

Bu yerda 255 o'rinli tomosha zali, ko'plab to'garak xonalari bor. Saroy zamonaviy cholg'u asboblari bilan ta'minlangan, ovoz yozish studiyasi, ovoz kuchaytirish moslamalari, mukammal sovitish va isitish tizimi bilan jihozlangan.

Diqqatga sazovor jihati, tumandagi san'at maktabi, umumta'lim maktabi va sport majmuasi u bilan yaqin joylashgan. Davlatimiz rahbari bu bolalarga qulay bo'lishini ta'kidlab, kelgusi loyihalarda shuni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz ham kuzatdi.

Sizlarni ko'rib, Amir Temur bobomiz yurtida iste'dodlar ko'pligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. G'ayratli bo'lib, bilim olishdan to'xtamasangiz, O'zbekiston buyukligining zaminini sizlar bo'lasiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev yoshlarga qaratib.

Markazda, shuningdek, bolalar maydonchalari, yashil hududlar, savdo va servis markazlari uy'g'urilmoqda. Umuman, 200 dan ortiq obyektlar barpo etildi. Bu bunyodkorlik va qulayliklardan aholi mamnun.

Hududda yana ijtimoiy soha obyektlari, kutubxona, sport maydonlari, madaniyat markazlari qurilishi davom etmoqda.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'Imas BAROTOV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'lumot xizmati suratlari.

TANQIDIY TAHLIL VA QAT'IY CHORALAR

Kecha Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumanida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Majlis

Unda Sirdaryo viloyatida jinoyatchilik va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi. Mavjud muammolar tanqidiy muhokama etilib, ularni bartaraf qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Ta'kidlanganidek, 2024 yil davomida Sirdaryo viloyatida 3 295 ta jinoyatchilik holati qayd etilgan va ularning 37,8 foizini kiberjinoyatlar tashkil qilgan. Joriy yilning dastlabki

to'rt oyida esa 705 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, tashvishlanarlisi, yoshlar, ayollar va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlar soni ortgan. Shuningdek, mahallalarda profilaktika tadbirlarining sustligi bois 82 ta mahalla qizil toifaga kiritilgan.

Bundan tashqari, 2024-2025 yillarning o'zida viloyatda 355 ta korruptsiyaviy jinoyat aniqlanib, ularning aksariyati o'zlashtirish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va pora olish bilan bog'liq.

Yig'ilishda, ayniqsa, bandlik, bank va sog'liqni saqlash tizimlarida

korruptsiyaviy holatlar ko'p uchrayotgani, ayrim davlat xizmatchilari esa qonunga zid tarzda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgani tanqid ostiga olindi.

Majlis davomida Sirdaryo viloyatida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, jinoyatchilik hamda korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi va tegishli "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Uning har bir vazifasi bo'yicha aniq muddatlar va ijrochilar belgilandi.

Muhokama yakunida tizimli xatolarga yo'l qo'ygani mutasaddilarga nisbatan intizomiy choralar ko'rish, ayrim rahbarlarni esa egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida tegishli tavsiyalar bildirildi.

«Xalq so'zi».

INSON QADRI, BAXTU KAMOLI – PIROVARD MAQSAD

Davlatimiz rahbarining Qashqadaryoga bu galgi tashrifi doirasida viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi loyihalar va ularning natijalari bilan bevosita tanishildi. Aholi hamda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilib, muammolar va takliflar eshitildi, aniq vazifalar belgilab olindi.

Munosabat

Bugun "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan g'oya mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy mezoniga aylangan. Mazkur tamoyil asosida Qashqadaryo viloyatida ham aholining

turmush sharoiti, daromadi va farovonligini yaxshilash, mahallalarni obodonlashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Hudud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan dasturlar natijasida yurtodoshlarimiz uchun ish joylari ochilyapti. Yoshlar va

xotin-qizlar daromadi kasblarga o'qitilib, tadbirkorlikka keng sharoit yaratilayotir.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sanoat tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Yangi, ilg'or texnologiyalarga asoslangan korxonalarda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligi, turizm, transport, energetika sohalarda yirik loyihalar hayotga tatbiq etilayotir.

Bu yutuqlarda Qashqadaryo viloyati, xususan, Qarshi shahri sanoati muhim o'rin tutadi. Viloyatdagi yirik eksportkor korxonalaridan biri – "Alp Texno Servis" korxonasi bu yo'nalishdagi eng muvaffaqiyatli

loiyalardan hisoblanadi. Qiymati 10 mln. dollar bo'lgan ushbu zamonaviy sanoat majmuasi elektr texnikasi ishlab chiqarish va eksport qilishda global zanjirga qo'shilgan.

Yana bir muhim gap. Yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylangan. Bu maqsadda tibbiyot tizimida jadal islohotlar amalga oshirilyapti, xususi sektoraga keng imkoniyatlar yaratilib, sohaga investitsiyalar jalb etilyapti. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida viloyatda 700 dan ziyod xususiy klinikalar tashkil qilingan bo'lib, ularda 72 turda tibbiy xizmat ko'rsatilayotir.



Senat qo'mitasida



SIFATSIZ MAHSULOTINI QAYTARIB OLGANLARGA IMTIYOZ KO'ZDA TUTILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining kecha bo'lib o'tgan majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirishga hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Keyingi yillarda muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish orqali iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza etishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Senatorlar muvofiqlikni baholash qoidalarini buzganlik uchun ta'sir choralarini kuchaytirish, texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berish mexanizmlarini shakllantirish maqsadida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelayotganiga alohida to'xtalib o'tdi. Qonun bilan Fuqarolik kodeksiga, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida" va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini oshirishga hamda texnik reglamentlar va qo'llanilishi majburiy bo'lgan standartlarga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlarni rag'batlantirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorlar o'z chiqishlarida ushbu qonun kelgusida muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini oshirishga va iste'molchilar huquqlarining yanada ishonchli muhofazasiga xizmat qilishini ta'kidlashdi.

Shuningdek, huquqiy hujjat tegishli talablarga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan yuridik shaxslarni moliyaviy sanksiyalardan ozod qilish orqali sifatsiz va xavfli mahsulotlar realizatsiyasi hamda iste'molini cheklashni ham ta'minlashi qayd etildi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

«Xalq so'zi».

BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI – DIQQAT MARKAZIDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning konfessiyalararo muloqotga bag'ishlangan ikkinchi konferensiyasida ishtirok etmoqda.

Konferensiya

Dunyo mamlakatlari parlament a'zolari, diniy konfessiyalar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va yoshlar vakillari qatnashayotgan mazkur anjuman doirasida o'tkazilgan turli mavzulardagi sessiyalar va yuqori darajadagi panel muhokamalarida dunyo miqyosida diniy toqatsizlik, konfessiyalararo nizolar va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha amaliy yechimlar muhokama qilindi. Xususan, davlatlar o'rtasidagi tarixiy va etno-konfessiyaviy ziddiyatlar, ularni bartaraf etishda barqaror dinlarni muloqot mexanizmlarini joriy etish, diniy masalalarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish orqali tinch va barqaror jamiyat qurish, yoshlarning ushbu jarayonlardagi faol ishtiroki hamda bag'rikenglik va o'zaro tushunish madaniyatini keng targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Anjumanda dunyo miqyosidagi diniy ziddiyatlarni yumshatish va global bag'rikenglik muhitini shakllantirishga oid qator tavsiyalar ilgari surildi.

«Xalq so'zi».



Darhaqiqat, Prezidentimizning turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi qat'iy siyosati natijasida vohaning tog'li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm majmualari barpo etilmoqda. Xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida sayyohlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Umumiy 240 gektar maydonida 400 mln. dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 1 700 ta doimiy ish o'ri yaratish rejalashtirilgani e'tiborga molik.

Viloyatdagi ko'plab tarixiy obidalar, muqaddas qadamlarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har birining o'z shonli tarixi bo'lgan qadimiy

yodgorliklar hamda sohibqiron Amir Temur davridan bizgacha saqlanib kelgan bebaho madaniy meros bilan tanishish, vohaning betakror tabiatidan bahramand bo'lish istagidagi tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ko'paymoqda.

Tashrif davomida Prezidentimiz hududlarning turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish, mamlakatimizning turizm salohiyatidan yetarli darajada foydalanish zarurligi, milliy turizm yagona platformasini ishga tushirishni tezlashtirish, unda chipta olish va elektron viza berish imkoniyatlarini yaratish, kapsulali uylardan iborat maskanlar ochish borasidagi muhim ishlar haqida to'xtaldi.

Aks sado
TURIZM SALOHIYATI YUKSAK ZAMIN

Qashqadaryo viloyati o'zining go'zal tabiati, purviqor tog'lari va qadimiy obidalari bilan mashhur. Hududning bunday o'ziga xosligi mahalliy va xorijlik turistlarni o'ziga jalb etadi.

Kuni kecha Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida Shahrisabz tumani Hisor tog'i yonbag'rida joylashgan "Miraki" xalqaro turizm markazining sayyohlik salohiyati bilan tanishar ekan, viloyatda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan muhim loyihalar ijrosi yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

"Turizm halqasi"ga kirgan magistrat va ichki yo'llarni sifatli ta'mirlash, turizm qishloqlari, hunarmandchilik va gastronomik markazlar, chegara punktida esa yurtimiz salohiyatini ko'rsatadigan "turizm burchagi" tashkil etish, tog'li hududlarga piyoda chiqish (treking) sayyohlik marshrutiga ruxsat berishni soddalashtirish borasidagi vazifalar belgilab berildi.

Chindan ham, Qashqadaryo zamin o'zining boy tarixi, qadimiy osori-atqalari, o'tmish yodgorliklari, betakror tabiati bilan ajralib turadi. Bugungi kunda vohada 1 311 ta madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 1 041 tasi arxeologiya, 200 tasi arxitektura, 43 tasi haykal va 27 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Shahrisabzdagi Oqsaroy memorial kompleksi, Qamashidagi Langar ota, Yakkabog'dagi Xo'ja Ilg'or ota, Qarshi tumanidagi Abul Muin an-Nasafiy kabi ziyoratgohlar ana shunday qutlug' maskanlardan bo'lib, bu yerlarga yiliga xorijiy davlatlardan ham minglab sayyohlarning tashrif buyurayotgani mamlakatimiz sayyohlik qudratining naqadar yuksakligidan dalolat.

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatga joriy yilning o'tgan davri mobaynida 500 mingdan ziyod mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan. Ta'kidlanganidek, turizm kam mablag' sarflab, ko'plab ish o'rinlari yaratadigan, aholi daromadini oshirib, hududlar qiyofasini tubdan o'zgartiradigan soha hisoblanadi. Viloyatda bu borada qator

imkoniyatlar borki, undan samarali foydalansak, sayyohlar oqimi ko'payib, iqtisodiyotimiz yanada mustahkamlanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda, uning qonunchilik asoslarini yanada mustahkamlashda, shuningdek, aholi bandligi va farovonligini yanada yaxshilashda dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

Shuhrat ASLANOV,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, madaniyat va sport
masalalari
qo'mitasi a'zosi.

INSON QADRI, BAXTU KAMOLI – PIROVARD MAQSAD



1 M a z k u r y o'nalishdagi yirik tashabbuslardan biri – rossiyalik tadbirkor bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Oq saroy" klinikasi. Asosiy yo'nalishi yurak-qon tomir xastaliklarini davolash bo'lgan ushbu muassasada bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali operatsiya o'tkazish imkoni yaratilgan.

Klinikada tashxis qo'yish imkoniyatlari ham keng. Zamonaviy exokardiografiya uskunasi sun'iy intellekt asosida ishlaydi. Bunday jihat O'zbekistonda hozircha yagona hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlar yuqori aniqlikda tashxis qo'yish va muvaffaqiyatli davolashda katta ahamiyat kasb etadi.

Odamlar uchun munosib hayot sharoitini yaratish, obod va barqaror turmush muhitini

ta'minlash bugun davlatimiz siyosatining markazida turibdi. Buni Yakkabog' tumanida qurilgan "Yangi O'zbekiston massivi" misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ayniqsa, "Eko bozor"ning tashkil etilishi dehqonlar uchun salohiyatli savdo maydonini, aholi uchun esa sifatli va arzon narxlarda mahsulot xarid qilish imkonini yaratdi. Eng asosiysi, bu bozorda 640 ta ish o'ri ochilgan, o'nlab oilalarning daromad manbai ta'minlangan.

Ma'lumki, turizm – bu faqat sayyohlik emas, balki iqtisodiyot, bandlik, infratuzilma va xalq farovonligini qamrab oluvchi strategik soha. Shahrisabz tumanidagi Miraki mahallasida bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning amaliy ifodasini ko'rish mumkin. Ilgari tashlandiq holda

bo'lgan, infratuzilmadan mahrum tabiiy go'zal joylar bugun yaxlit va tizimli yondashuv natijasida xalqaro darajadagi turizm markaziga aylantirilmoqda. Bu, avvalo, davlat siyosatining amaliy natijasi, ikkinchidan, mahalliy aholi uchun bevosita ish o'ri, barqaror daromad va zamonaviy turmush tarzi, demakdir.

117 ta loyiha, 400 mln. dollarlik investitsiya, 1 700 ta yangi ish o'ri – bu shunchaki so'z emas, real harakat va natija. Bu ushbu hududning emas, balki O'zbekistondagi turizm rivojining yangi bosqichini anglatadi. "Eko yo'lak", mehmonxonalar, xostellar, ko'ngilochar hududlar va tabiat bilan uyg'unlikda yaratilgan dam olish maskanlari sayyohlar va mahalliy aholi uchun ham sifatli vaqt o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

Aytish joizki, viloyat paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, taqvimchilik sanoatidagi ulushi 10 foizga ham yetmaydi. Hozirgi kunda 100 ming tonna ip-kalavaning atigi 28 foizi qayta ishlanadi. Shu maqsadda Kosondagi 40 gektarda tashkil etilgan yangi texnoparkda 200 mln. dollarlik 12 ta loyiha qilib rejalashtirilgan, lekin suv tozalash inshooti va kanalizatsiya yo'ligi uchun ishlar to'xtab qolgan.

Viloyatni kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilib, mutasaddilarga texnopark infratuzilmasi uchun mablag' ajratish topshirildi. Umuman, 400 mln. dollarlik 35 ta loyihani boshlab, bu yil ip-kalavani qayta ishlashni 51 foizga, kelgusi yili 100 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Albatta, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar, shubhasiz, Qashqadaryo viloyatining yanada rivojlanishi, aholi turmush farovonligi yuksalishiga xizmat qiladi. Buning uchun barchamiz birgalikda intilishimiz, yurtimiz rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz kerak.

Farhod ZAYNIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.



TABIY BOYLIKLARDAN OQILONA FOYDALANISH – TARAQQIYOT OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilish hududning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga qaratilgan navbatdagi amaliy qadam bo'ldi. Unda bildirilgan fikr va topshiriqlar har birimiz – davlat idoralari, mahalliy hokimiyat hamda deputatlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Joriy yilda Qashqadaryo viloyatiga 3,5 mlrd. dollar investitsiya jalb qilish rejasini – davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan islohotlar samarasi va investitsiya muhitining yaxshilanib borayotganidan dalolat. Ayniqsa, Koson, Kitob va Chiroqchi tumanlarida so'nggi besh oyda investitsiyalar qariyb ikki barobar oshgan.

Prezident tomonidan qayd etilgan masala – viloyatdagi 12 ta konga sanoat kirib bormagani, haqiqatan ham, e'tibor qaratish lozim bo'lgan dolzarb muammo. Bunday tabiiy boyliklardan oqilona va samarali foydalanish mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratishda muhim o'rin tutadi. Qurilish materiallari sohasida tayyorlangan 150 mln. dollarlik 16 ta loyihaning amalga oshirilishi, shubhasiz, viloyat infratuzilmasini yanada mustahkamlaydi.

Alohida e'tirof etish kerakki, Kitob tumanidagi 20 tonna oltin zaxirasi va undan yopiq usulda, ya'ni tabiatga zarar yetkazmagan holda

foydalanishga qiziqish bildirgan investorlar mavjudligi yurtimizda ekologik barqarorlikka bo'lgan munosabat o'zgarib borayotganidan dalolat. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ekologik siyosatimizning ham to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi.

Chiroqchidagi noyob metallar va Kitobdagi yana 5 ta istiqbolli maydonida geologiya ishlarining boshlanishi ham strategik resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan izchil siyosat namunasidir. Avvalo konchi, qolaversa, xalq vakili sifatida biz bu tashabbuslarni qonunchilik jihatdan qo'llab-quvvatlash, sohadagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va aniqlangan zaxiralardan adolati aqlikdan orqali ochiq hamda shaffof foydalanish tizimini yaratishni o'z zimmamizga olishimiz maqsadga muvofiq. Prezidentimizning bu boradagi aniq topshiriqlari biz uchun yo'l xaritasidir.

Galiya RAYHANOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

BEQIYOS O'ZGARISHLARDAN AHOLI FAROVONLIGI YANADA OSHADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi, tom ma'noda, voha ahli hayotida keng qamrovlil islohotlar manzarasini yana bir bor namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi, amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish barobarida aholi vakillari, faollar bilan muloqot qildi. Yangi obyektlar ishga tushirilib, viloyatni kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berildi.

Xususan, Qarshi shahridan Shahrisabzga yo'l olgan poyezdda bo'lib o'tgan suhbat chog'ida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida olib borilayotgan ishlar, shahar va qishloqlar hayotidagi o'zgarishlar, tinchlik va barqarorlik qadri haqida so'z yuritildi. Kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish, yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o'rgatish, mahallalarni obodonlashtirish kabi ustuvor vazifalar ijtimoiy hayotning markaziy yo'nalishiga aylanganini urg'ulandi.

Prezidentimizning Shahrisabz tumanida barpo etilgan "Hisorak" kichik gidroelektr stansiyasini ko'zdan kechirishi mamlakatimizda ekologiya va energetika sohasi rivojiga berilgan katta e'tiborni yana bir bor tasdiqlaydi.

Hisorak suv ombori va unga bog'liq asosiy GESlar Qashqadaryo viloyatining elektr energiyasi bilan ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Jumladan, 3,5

MVt quvvatga ega bo'lgan kichik GES yiliga 17,5 mln. kilovatt-soat energiya ishlab chiqaradi va shu hududda 7 mingdan ortiq xonadonlarni ta'minlaydi. Bu ekologik toza, tejamkor va qayta tiklanuvchi energiya manbai sifatida viloyat aholisi hayotini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan ulkan imkoniyatdir.

E'tiborlisi, kelgusi ikki yilda 416 ta kinetik turbinali mikro GES qurilishi rejalashtirilmoqda. Bu esa ariq va kanallardan ham samarali foydalanib, quvvatni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Umumiy quvvat 12 MVtga yetkaziladi va bu Qashqadaryodagi elektr energiyasi iste'molining 15 foizini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 38 foiz o'sgani va yillik ishlab chiqarish hajmi 81,5 mlrd. kilovatt-soatga yetgani mamlakatimizning energiya xavfsizligi



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

va ekologik ustuvorligiga berilgan katta e'tiborning belgisidir.

"Hisorak" kichik GESning mahalliy muxassislar va korxonalar tomonidan qurilishi mamlakatimizda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Energiyani ekologik toza manbalardan olish bo'yicha yangi loyihalar amalga oshirilishi Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga salmoqli hissa qo'shadi.

Viloyatni kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari

istiqboldagi rejalarga to'xtalib o'tdi. Xususan, bu yil Qashqadaryoda 470 ming odamni band qilish, 150 ming aholini kambag'allikdan chiqarish, Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shaharlarini "ishsizlik va kambag'allikdan xoli hudud"ga aylantirish mo'ljallangani, bu borada ishga solinmagan imkoniyatlar ko'rsatib berilgani, shubhasiz, inson va uning baxtli hayot kechirishiga xizmat qiladi.

Shahrisabz shahri mahallalarida uy sharoitida temirchilik bilan shug'ullanayotgan aholiga qulay bo'lishi uchun Qorasuv mahallasidagi

4,5 gektar bo'sh yerda temirchilik mikro-markazining tashkil qilinishi, bunday mikro-markazlar Qarshi shahri, Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson va Chiroqchi tumanlarida ham ochilishi odamlarning ko'p yillik muammolarini aritib, ularni faollikka chorlashi muqarrar.

Xorijda mehnat qilayotgan qashqadaryoliklar yuqori daromadli ishlar bilan band bo'lishi uchun Qarshi davlat universitetida 100 nafar o'qituvchining nemis, yapon, koreys tili bo'yicha malakasini oshirish, kamida 10 ming odamni xorijiy tilga o'qitish, xorijda kam daromad topayotgan fuqarolarimizni o'zimizda ishlil qilish haqidagi fikrlar Qashqadaryo ahlining ayni dildagi gap bo'ldi.

Ushbu tashrif mamlakatning eng chekka hududlarida ham yangilanish, taraqqiyot va islohotlar izchillik bilan amalga oshirilayotganini yana bir tasdiqladi. Odamlar turmush darajasini oshirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Noiba INOYATOVA,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



Ekologik tashabbuslar – BMT e'tirofida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamkorligida "O'zbekistonning ekologik tashabbuslari – Birlashgan Millatlar Tashkiloti e'tirofida" mavzuida seminar o'tkazildi.

Takidlanganidek, mamlakatimizda ekologiya sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilib, bu boradagi tashabbuslarimiz nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ko'kalamzorlashtirish orqali bioxilmaxillikni saqlash va tiklashga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi va "Markaziy Osiyo "yashil" kamar" daraxt ekish aksiyasi xalqaro hamjamiyat tarafidan yashillik darajasini yuksaltirish yo'lidagi "O'zbekiston tajribasi" sifatida e'tirof etildi.

Joriy yilning may oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan BMTning "Iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish" mavzuidagi Xalqaro iqlim forumida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish masalalari, shuningdek, bu boradagi O'zbekiston tajribasi ko'rib chiqildi.

Shu o'rinda O'zbekistonning yetakchi ekologik tashabbuslari orqali jahon davlatlari birlashib, kelajak avlodlar uchun toza va sog'lom muhit yaratish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT tomonidan qabul qilingan 12 ta rezolyutsiyaning 5 tasi aynan ekologik masalalarga bag'ishlangani ham buning yaqqol dalilidir.

Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni

jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish, Markaziy Osiyo global ekologik muammolar qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash, Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ'ib qilish – ekologik muammolarga qarshi kurashishning samarali yechimi. Barqaror o'rmon xo'jaligi asosida o'rmonzorlashtirish va o'rmonlarni tiklash bo'yicha Harakatlar dekadasi shular jumlasidan.

Seminarida qayd etilganidek, mazkur tashabbuslar mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy o'sish bilan birga ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishi salbiy oqibatlarini yumshatishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, qabul qilingan rezolyutsiyalar Markaziy Osiyo mintaqasining global ekologik siyosatidagi faol ishtirokini yanada kuchaytirishga, "O'zbekiston tajribasi"ni natijaga yo'naltirilgan va hamijahatlik tamoyillariga asoslangan eng to'g'ri va oqilona yondashuv sifatida butun jahonga keng targ'ib qilishda muhim omil bo'ladi.

Tadbirda qabul qilingan rezolyutsiyalar hamda ma'ruzalar tinglandi. Har bir rezolyutsiyaning mazmuni-mohiyati va ahamiyati ochib berildi. Seminar ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar olishdi.

Fuqarolik jamiyatida yoshlarning o'rni

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan "Fuqarolik jamiyati institutlari va yoshlar hamkorligi: bugungi amaliyot va kelgusidagi rejalari" mavzuida konferensiya o'tkazildi.

Anjumanda deputatlar, Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi va Yoshlar parlamenti a'zolari, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar manfaatlarini himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi belgilab qo'yildi.

Yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilgani ularni kasb-hunariga qaratilish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyil bo'g'inning o'zida hal etish imkonini bermoqda.

Ilgari oliy ta'limda bitda o'rin uchun kamida 10 nafar bola davra olib borgan bo'lsa, qisqa davrda oliygohlar soni uch barobar oshirilgani natijasida endi 42 foiz yoshlar qamrab olinmoqda. Xotin-qizlarga shartnoma to'lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani

hisobiga ularning soni 11 karra ko'paydi.

Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar natijasida yurtimizdagi yoshlar siyosati xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Buni O'zbekiston BMTning "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoridan joy olgani misolida ham ko'rish mumkin.

So'z olganlar Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti bugun navqiron avlodning manfaatlarini himoya qilish, ularni qonunchilik jarayoniga jalb etishda muhim platforma vazifasini o'tayotganini qayd etdi.

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash Qonunchilik palatasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilab olingani mamlakatimizda yoshlar siyosatining huquqiy asoslari yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Konferensiyada fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida yutuqlarga erishgan bir qator yoshlar o'z fikr-mulohazalari, takliflari bilan faol qatnashdi. Ular tomonidan salohiyatli yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash hamda davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan qator amaliy takliflar ilgari surildi.

Yakunda qo'mita tomonidan konferensiya natijalari bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, mamlakatda yoshlar siyosati samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

«Xalq so'zi».

O'zbekiston – Xitoy:

OLY TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 17 iyun kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Xitoy" ikkinchi sammitida ishtirok etib, nutq so'zlad. Davlatimiz rahbari o'z nutqida kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ustuvor yo'nalishlarda kengaytirish istiqbollari, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar haqida fikr bildirdi ekan, ta'lim sohasiga ham urg'u qaratdi. Professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, universitetlar rektorlari forumlarini o'tkazish, ilmiy akademiyalar va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlari uchrashuvlarini tashkil etish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformalarini shakllantirish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

Nuqtai nazar

Darhaqiqat, yurtimizda ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. So'nggi yillarda biz oliy ta'lim sifatini oshirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi, akademik mobillik va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Joriy yilning 1-2 iyun kunlari bir vaqtlar sivilizatsiyalarni o'zaro bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining gavhari – tarixiy Samarqand shahrida o'tkazilgan Ta'lim, fan va texnologiyalar sohasida innovatsion hamkorlik forumi aynan O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, ta'lim tizimida ilg'or texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

Ushbu tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Xitoy Xalq Respublikasining Shensi provinsiyasi gubernatori Chjao Gan, shuningdek, mamlakatimizning 35 ta oliy ta'lim muassasasidan 100 nafar, Xitoy tomonidan 16 ta oliy ta'lim muassasasidan 58 nafar rektor, prorektor va vakillar qatnashdi.

Forum davomida "Study in China" va "Study in Uzbekistan" ko'rgazmasi, "U2U" va "G2U" uchrashuvlari hamda "Muhandislik sohasida ta'lim va kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik", "O'zbekiston va Xitoyning tarixiy poytaxt shaharlarini asrash va rivojlantirishni ilgari surish", "Xitoy tilini xalqaro o'qitishning yuqori sifatlari rivojlanishi" mavzularida 3 ta parallel sessiya faoliyati

yo'lga qo'yilib, mavzular yuzasidan ma'ruzalar, muhokamalar bo'lib o'tdi. 2024 yil yanvar oyida Pekinda bo'lib o'tgan O'zbekiston – Xitoy birinchi ta'lim forumida boshlangan muloqotni davom ettirish imkoniyati yaratildi.

Xitoy Xalq Respublikasi 30 yildan buyon O'zbekistonning

“ Bugun noyob imkoniyat – ta'lim tizimini integratsiyalashtirish, talabalar va o'qituvchilar almashish, qo'shma ilmiy izlanishlar olib borish imkonini beradigan "Xitoy – Markaziy Osiyo" yagona ta'lim platformasini shakllantirish vazifasi oldida turibmiz. ”

strategik sherigi sifatida ta'lim va ilmiy hamkorlik sohasida salmoqli qo'shma dasturlarni amalga oshirildi.

Davlatlar rahbarlarining rasmiy tashriflari, ta'lim sohasidagi hukumatlararo shartnomalarning imzolaniishi, savdo-iqtisodiy aloqalar faollashuvi, xalqaro munosabatlari barqarorligi – uzoq muddatli ta'lim dasturlarini rejalashtirishga, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun sarmoya jalb qilishga va to'siqlarsiz akademik almashinuvlarni yo'lga qo'yishga shart-sharoitlar yaratmoqda.

Qadimiy Samarqandning dunyo hamjamiyatidagi o'rni barchaga ayon. Sian shahri ham uch ming yillik tarixga ega. Mazkur forum Buyuk Ipak yo'lidagi ikki qadimiy shahar o'rtasidagi aloqalarni, ta'lim sohasidagi hamkorliklarni yanada



yuqori darajaga olib chiqadi. Zero, Xitoyda ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik ba'zan "Ta'lim ipak yo'li" deb ataladi.

To'rtinchi sanoat inqilobi ta'lim sohasida keskin o'zgarishlarni, jahon iqtisodiyoti esa doimiy ravishda yangi g'oyalar va yechimlarni joriy etishni talab qiladi. Bu borada O'zbekiston va Xitoy yaqin hamkorlikda ishlab, XXI asr ta'lim modellari yaratishda liderlarga aylanishi mumkin.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik ta'limidan ancha keng doirani qamrab oladi. 2020 – 2024 yillar oralig'ida energetika, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari

va tibbiyot kabi strategik muhim sohalarni qamrab olgan 15 ta qo'shma ilmiy loyiha amalga oshirildi.

2023 yilda Xitoy kompaniyalari O'zbekistonda 5 ta innovatsion loyiha uchun grantlar ajratdi. Sun'iy intellekt va robototexnika sohasidagi tadqiqotlar shular jumlasidan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda XRR Ta'lim vazirligi o'rtasida 1999 yil 8 noyabrda ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim imzolangan. Ammo ushbu sohadagi hamkorlik keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, ikki tomonlama munosabatlarning muhim qismiga aylandi. Biz ta'lim dasturlarimizning "Bir makon, bir yo'l" global tashabbusi bilan integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratmoqdamiz va ta'limga ushbu keng ko'lami loyihaning "yumshoq infratuzilmasi" sifatida qaraymiz.

Mazkur integratsiya doirasida logistika va transport, xalqaro savdo, barqaror rivojlanish kabi muhim bo'lgan sohalarda maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish jarayonida xitoy tili oddiy aloqa vositasi emas, balki madaniyatlararo o'zaro tushunish ko'prigi va iqtisodiy integratsiya vositasiga aylanmoqda.

O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ta'lim sohasidagi ko'p tomonlama aloqalarni faol rivojlantirmoqda. Biz ShHT universitetlar tarmog'ini va ShHT yosh olimlarining akademik mobillik dasturini yaratish tashabbuskori bo'ldik.

Xitoydagi o'zbekistonlik talabalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Xitoy O'zbekiston fuqarolari uchun stipendiyalar ajratib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizdagi xitoylik talabalar soni ham ko'paymoqda. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarimizda jami 2 ming nafarga yaqin xitoylik talabalar tahsil olmoqda.

2004 yilda Toshkent shahrida va 2013 yilda Samarqand shahrida Konfutsiy institutlarining tashkil etilgani O'zbekistonda xitoy tili hamda madaniyatining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston va Xitoy universitetlari o'rtasida ko'plab hamkorlik shartnomalari tuzildi. Birgina bizning O'zDJTUda Pekin, Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetlari, Shanxay normal universiteti, Pekin til va madaniyat universiteti, Sharqiy Liaoning universiteti, Liaodun universiteti, Tianjin xalqaro tadqiqotlar universiteti, Dalian texnologiya universiteti, Nankin texnologiya institutlari bilan hamkorlik o'rnatilgan va shartnomalar imzolangan. Forum doirasida shartnomalar soni yanada oshdi. O'zDJTU va Sian chet tillar universiteti o'rtasida shartnoma imzolandi va rejalari belgilab olindi.

Universitetimizda mazkur yo'nalish alohida o'rin egallaydi. "QS World University Ranking" reytingiga ko'ra, bizning oliygohimiz "Lingvistika" yo'nalishi bo'yicha dunyoda 251-o'rinni egalladi. Bu ta'lim muassasamizning yuqori xalqaro maqomini tasdiqlaydi.

Universitetda xitoy tili 1990 yildan ikkinchi chet tili sifatida, 2014 yildan esa asosiy chet tili sifatida o'qitiladi. Bugun

mingga yaqin talabalar bakalavr va magistratura dasturlari doirasida xitoy tilini o'rganmoqda. Universitet nafaqat pedagog kadrlarni, balki gid hamrohlik va tarjimonlik faoliyati sohasidagi mutaxassislarni ham tayyorlaydi.

Bizning professor-o'qituvchilar tarkibimiz alohida g'ururimizdir: 16 nafar mahalliy xitoy tili o'qituvchisi 10 nafar xitoylik mutaxassis bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi.

Ikki tomonlama akademik mobillikni rivojlantirish doirasida O'zDJTUda har yili rus tili, o'zbek tili, shuningdek, xalqaro munosabatlarni, madaniyatshunoslik sohasidagi ixtisoslashtirilgan fanlarni o'rganadigan xitoylik talabalar guruhlari qabul qilinadi. Xitoylik talabalarning O'zbekiston ta'lim muhitiga sifatlil moslashuvini ta'minlash uchun rus va o'zbek tillarining intensiv kurslari, mahalliy akademik madaniyat va oliy ta'lim tizimi xususiyatlari bilan tanishtirishni o'z ichiga olgan maxsus hamrohlik dasturi ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda chet tillarini o'qitadigan oliy ta'lim muassasalarida Xitoy oliy o'quv yurtlaridan taklif etilgan til sohiblari, ya'ni xitoy tili o'qituvchilari, stajyorlar, olimlar talabalarimizning xitoy tilini yuqori darajada o'rganishiga hissa qo'shmoqda.

Har yili Xitoy maktablarini bitirgan 3-4 mln. nafar yoshlar ushbu mamlakat oliygohlariga o'qishga kira olmaydi. Ushbu forumda ularni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish imkonligi to'g'risida takliflar bildirildi.

Bugun noyob imkoniyat – Prezidentimiz ilgari surgan tashabbusni ro'yobga chiqarish, ya'ni ta'lim tizimini integratsiyalashtirish, talabalar va o'qituvchilar almashish, qo'shma ilmiy izlanishlar olib borish imkonini beradigan "Xitoy – Markaziy Osiyo" yagona ta'lim platformasini shakllantirish vazifasi oldida turibmiz.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hamkorlikka doim ochiq. Qo'shma ta'lim va ilmiy tashabbuslarni amalga oshirishga hissa qo'shishga tayyor. O'zaro hamkorligimiz mamlakatlarimiz farovonligi, barqaror rivojlanishi va innovatsion kelajagi garovi bo'lishi, shubhasiz.

Ilhomjon TO'XTASINOV,
O'zDJTU rektori,
pedagogika fanlari doktori,
professor.

SUV MUAMMOLARINI HAL QILISHDA YETAKCHI ILMIY MUASSASA



O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutida mazkur muassasa tashkil etilganining 100 yilligi munosabati bilan "Markaziy Osiyoning global ekologik va suv muammolarini hal qilishda ilmiy yondashuvlar" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Xalqaro anjuman

Unda Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining faoliyati 1925 yilda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Gidrotexnika tajriba-tadqiqot institutini tashkil etishdan boshlangani, turli davrlarda turlicha nomlangan bu ilmiy dargoh yuksak ilmiy-ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan salohiyatli

muassasaga aylangani haqida fikr yuritildi. – Bu yerda juda katta ilmiy maktab yaratilgan, – deydi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev. – Ko'plab olimlar, ilm ahli yetishib chiqdi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan suv xo'jaligi sohasini ilm-fan yutuqlari asosida

isloh qilish, rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning samarasi o'laroq 2018 yilda Prezidentimiz qaroriga asosan institut vazirlik tarkibiga o'tkazildi. Institut binosi qayta ta'mirlanib, laboratoriya bazalari zamonaviy asbob-uskuna va anjomlar bilan jihozlandi. Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari kengaytirildi, Qoraqalpog'iston filiali mintaqaviy markaz sifatida, Suv xo'jaligi muhandislik markazi hamda Suvni tejaydigan texnologiyalar ilmiy-tadqiqot konsalting markazlari qayta tashkil etildi. Xorazm, Buxoro, Namangan, Samarqand va Surxondaryo mintaqaviy markazlari yangidan shakllantirildi.

Hozirgi kunda institutda 94 nafar tayanch doktorant, 3 nafar doktorant va 10 nafar mustaqil izlanuvchi ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda. Suv xo'jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bo'yicha 28 ta mavzu bo'yicha 7,3 mlrd. so'mlik ilmiy tadqiqot loyihalari, shundan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 8 ta amaliy, innovatsiya va fundamental, 30 ta ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi a'zolari, xalqaro tashkilotlar vakillari, Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari, umuman, yigirmadan ziyod chet davlatlardan suv sohasidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari hamda yetakchi olimlar ishtirok etdi.

«Xalq so'zi».



YANGI QIYOFADAGI ZIYO MASKANI

Bulung'ur tumani Axborot-kutubxona markazi yangi binoga ega bo'ldi. Ziyot maskanining ochilish marosimida Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi vakillari, Samarqand viloyatidagi kutubxona faoliyatiga aloqador mas'ullar, tuman faollari qatnashdi.

Qulaylik

Axborot-kutubxona markazi yangi binosida 2 ta o'quv zali, faollar zali, kompyuter xonasi, 6 ta xodimlar uchun xona, bibliografiya, fondlarni saqlash xonasi va ko'zi ojizlar kutubxonasi joylashgan. Tadbir ishtirokchilari binoda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi, qator tashkilotlar tomonidan kutubxonaga kitoblar sovg'a qilindi.

Ma'lumot o'rinda aytish kerakki, bugungi kunda ushbu Axborot-kutubxona markazida 8,5 ming nomdagi 18 mingdan ortiq kitoblar mavjud, kelgusida ularning soni yanada ko'payadi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
(«Xalq so'zi»).

BEBAHO MA'NAVY MEROS

Millat taqdiri uning tili bilan belgilanadi. Til – har qaysi xalqning ruhi, nafasi, tarixiy xotirasi. Unga munosabat xalqning o'ziga bo'lgan hurmati bilan barobar sanaladi. Mustabid tuzum davrida tajovuzkor kuchlar ona tilimizni yo'q qilish orqali xalqimizni tarix sahnasidan supurib tashlashga urindi. Ammo o'sha mafkuraviy tazyiqlar girdobida ham ona tilimizning posbonlari o'z halovati, hatto jonidan kechib kurash maydoniga chiqishdi. Ularning sa'y-harakati bilan "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilangani ulkan ma'naviy jasorat namunasi edi.

Mushohada

Turkiy tillar oilasining gultoiji sanalmish o'zbek tili rivoji va uning nufuzini oshirish yo'lidagi intilish 2016 yilga kelib yangi bosqichga ko'tarildi.

Asosiy Qonunimizning yangi tahriri bu haqiqat o'z aksini topdi. Xususan, 4-moddada "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" deb qat'iy belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, mamlakatdagi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hamda an'analari hurmat bilan yondashish, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish ham davlatning zimmasidagi vazifa sifatida e'tirof etildi.

Jonajon Vatanimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayoti, o'z ona tillarini erkin rivojlantirishi va asrab-avaylashi davlat siyosatida muhim o'rin tutadi. Ammo bu holat aslo o'zbek tiliga nisbatan e'tiborsizlik yoki bepisand munosabatni oqlamaydi. Davlat tili davlat ramzi, milliy g'urur va ma'naviy suyanchdir.

Keyingi yillarda o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor nafaqat ichkilik kasb etgani, balki yangi taraqqiyot bosqichiga chiqqani bilan ham quvontiradi. Jumladan, 2019 yil 21 oktyabrda "O'zbek tiling davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni imzolandi. Bugungi kunda 21 oktyabr sanasi yurtimizda "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida nishonlanmoqda. Davlat tili rivojlantirish departamenti, vazirlik va idoralarda maxsus maslahatchi lavozimlari joriy qilingan. Ular oldiga yurtimizda til madaniyatini yuksaltirish, qonun talablariga rioya etilishini ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Prezidentimizning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 2020 – 2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Unga ko'ra tilga oid ishlar tizimli holga keltirildi, mamlakatimizda davlat tiliga amal qilish mexanizmi ishlab chiqildi. Qisqacha aytganda, til siyosatini rivojlantirish strategiyasi belgilab berildi.

Konsepsiya yangi avlod



darsliklari va o'quv lug'atlari yaratishni sifat bosqichiga olib chiqdi. Davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimidagi atamalar tartibga keltirildi, davlat idoralarda davlat tilida ish yuritish bo'yicha boshlangan ishlar takomillashtirib borilmoqda.

Mazkur hujjat bilan davlat maktabgacha ta'lim tizimida o'zbek tili guruhlar qamrovini 2030 yilgacha 80 foizga yetkazish, umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida ona tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi – haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 140 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish, teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarini o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030 yilgacha 100 foizga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, davlat tilida so'zlashuvni oshirish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'atlar, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish hamda boshqa chora-tadbirlar o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Darhaqiqat, davlat tilini rivojlantirishning ko'p yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilishi ona tilimiz hayotida qiyoslab bo'lmaydigan tarixiy voqeelik bo'ldi. Endilikda til rivojiga ilmiy yondashuv dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, zamonaviy tilshunoslik fani oldida nafaqat lingvistik tadqiqotlar o'tkazish, balki tildan samarali foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish, nutqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha

yo'l-yo'riq hamda ko'rsatmalar tayyorlash kabi mas'uliyatli vazifalar turibdi.

Sohada erishilayotgan yutuqlar ko'pligini ham e'tirof etish joiz. Masalan, "Davlat tilida ish yuritish" qo'llanmasi, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida nashr etilgan 6 jildli "O'zbek tiling izohli lug'ati", "O'zbek xalq so'zlari lug'ati", "O'zbek tiling katta imlo lug'ati", "Frazologik lug'at", "Sinonimlar izohli va o'quv lug'atlari", "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati" kabi salmoqli nashrlar – mashaqqatli ilmiy izlanishlar mevasi.

Bugungi kunda so'zlashuv lug'atlar, barcha viloyatlar toponimlarini qamrab olgan to'plamlar tayyorlanib, nashrga taqdim etilish arafasida turibdi. Bu esa nafaqat tilshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, balki o'zbek tili rivojiga ilmiy yondashuv keng quloch yozayotganidan dalolat beradi.

So'nggi o'n yillikda o'zbek tiling xalqaro maydondagi nufuzi izchil o'sib bormoqda. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan davlatimiz rahbarining o'zbek tilida so'zlagan nutqi tarixiy voqeya

o'rganuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni dunyoda ellik milliondan oshgani barchamiz uchun quvonarli hol.

O'zbek tili AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va yuzdan ortiq maktablarida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda.

Darvoqye, Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta'sis etilishi o'zbek tiling xalqaro nufuzini oshirishdagi muhim ishlaridan biri bo'ldi.

Mamlakatimizda "Davlat tili haqida"gi va "Reklama to'g'risida"gi qonunlar, hukumat qarorlarining bajarilishiga katta e'tibor qaratilyapti. Ayniqsa, toponimik obyektlarga nom berishda ajnabiy nomlar olib tashlanib, ular tarixiy yoki

aylanishimni ta'kidlashar edi. Ammo ko'p yillar o'tishiga qaramay biz haligacha shevachilikdan, markazdagi shevalarni yuqori qo'yish odatidan qutula olmadik. Kamchiliklar va aybdorlarni tanqid qilish bilan vaqt o'tkazaymiz, xolos. Bu – ona tilimizning eng og'riqli nuqtasi, nazarimizda.

Fikrimizcha, biz hali ham mustabid tuzum asoratlaridan to'liq qutulganimiz yo'q. 30 yildan ortiq vaqt o'tib ham ayrim idoralarda ish rus tilida davom etyapti. Markaziy shaharlarda o'ta-onalarning bolalarini xorijiy tilda o'qitish istagi hamon yuqori ekani milliy g'ururimizning yetarli emasligidan darak beradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan o'zbek tili siyosati borasida hyech qachon orqaga qaytilmasligi aniq va ravshan belgilab berilgan.

Mamlakatimizda boshqa tillarning o'qib-o'rganilishiga hyech kim qarshi emas. O'zbekistonda yashaydigan har qanday fuqaro o'zi istagan tili o'rganishi mumkin. Axir dunyo bilan muloqot qilishning samarali usuli ham shu. Ammo biz masalaning ikkinchi tarafi borligini ham unutmasligimiz darkor. Inson qaysi tilda yozsa va gapirsa, o'sha tilda tafakkur qilishga odatlanadi. Tafakkur esa milliy qiyofa degani. Milliy tilisiz, milliy qiyofasiz qolgan millat esa o'z yo'li va o'rmini yo'qotishga tarix guvoh.

O'z davrida Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va jaddlarimiz millat tili uchun kurashib, uning rivojiga munosib hissa qo'shgan. Ular bugungi o'zbek tiling darajasini belgilashda katta rol o'ynashgan. Biz esa bu shonli yo'lni davom ettirishimiz zarur. Tomoshabin bo'lib turish yoki ijtimoiy jabhada harakatsiz qolish – millatga, xalqimizning kelajagiga xiyonat. Har birimiz o'zbek tilini qo'llab-quvvatlash, savodxonlik va nutq madaniyatini yanada yuksaltirish yo'lida faol bo'lmoqimiz shart.

Yoshlar qalbida ona tiliga muhabbatni bog'cha yoshidan tarbiyalash kerak. Ular adabiy tilda go'zal so'zlash olishi bilan faxrlanishi lozim. Har bir o'ta-ona esa bolasini adabiy tilda gapirishga o'rgatish uchun mas'ul bo'lishi zarur. Bugun ko'p ota-onalar bolalarini adabiy tilda so'zlashga undamaydi. Bu holatni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun ish bog'chadanoq boshlanishi lozim. Bunda davlatkabi ta'lim muassasalari – bog'cha va maktablarda adabiy tilda gapirish talab etilishi maqsadga muvofiq.

Nazarimizda, inson ongini ijobiy tomonga o'zgartirishni amalga oshirmay turib til va nutq madaniyatida ham kutilgan natijalarga erishish mushkul. Ommaga ta'sir o'tkazish uchun mamlakatdagi barcha ziyolilar bir to'g'ri yo'lga, hamfikr va ruhan birlashgan holda harakat qilishi kerak. Vatan va millat taqdiriga befarq bo'lmagan har bir inson, har qaysi ziyoli adabiy tilda gapirishi zarur. Ular nafaqat o'zlarini, balki o'ziga xos nutq madaniyatini va tildan foydalanish usuli bilan atrofodagilarga ham namuna bo'lishi shart. Ayni vaqtda tilimiz madaniyatini yuksaltirishning samarali usullaridan eng muhimi shu. Tilimizga muhabbat va undan foydalanish madaniyatini yuksaltirish har birimiz uchun faqatgina hurmat emas, balki kelajak avlodga qoldirilajak bebaho ma'naviy meros hamdir.

Suyun KARIMOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.



1 millionga yaqin chet ellik okeanortini tark etdi

AQSh Mehnat statistikasi byurosi ma'lumotlariga asoslanib Migratsiya tadqiqotlari markazining xabar berishicha, "dastlabki ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda 2025 yilning yanvaridan may oyigacha bo'lgan davrda ishlaydigan va ishsiz chet elliklar umumiy soni 957 ming kishiga kamaygan".

Ya'ni 2025 yil may oyiga kelib AQShda 14,8 million noqonuniy muhojir istiqomat qilmoqda va bu yanvar oyiga nisbatan 1 milliontaga kam. Hisobot mualliflarining ta'kidlashicha, AQSh fuqaroligiga ega bo'lmagan chet elliklar Donald Trampning prezidentlik saylovlaridagi g'alabasi va huquq-tartibot idoralarning muhojirlarni chiqarib yuborish bo'yicha harakatlarni kuchaytirishi sababli mamlakatni tark etmoqda.

Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda

Xitoy Xalq Respublikasi bojxona bosh boshqarmasining statistika ma'lumotlariga qaraganda, joriy yilning yanvar – may oylari davomida Xitoy va Markaziy Osiyoning beshta davlati o'rtasidagi import va eksport hajmi 10 foizga oshib, 39,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

O'tgan yilda Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2014 yilga nisbatan 3 barobardan ko'proq oshib, 94,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan edi. XRR Savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlik akademiyasi Yevrosiyo instituti professori Lyu Xuatsin Qozog'iston Xitoyning Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo hamkori ekanligini ta'kidladi.

Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi Sharqiy Yevropa, Rossiya va Markaziy Osiyo instituti katta ilmiy xodimi Su Channing so'zlariga ko'ra, Qozog'iston va Xitoy "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida o'n yildan ortiq vaqtdan beri logistika, infratuzilma, iqtisodiyot va savdo sohalarda hamkorlik qilib kelmoqda.

Yashash uchun eng qulay shaharlar reytingi

Buyuk Britaniyaning "The Economist" jurnali dunyoning yashash uchun eng qulay shaharlari reytingini e'lon qildi. Unda dunyoning 173 shahri barqarorlik, atrof-muhit, sog'liqni saqlash, infrastruktura va ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha 100 balli tizimda baholandi. Va Daniya poytaxti Kopengagen 2025 yil yashash uchun eng qulay shahar deb topildi.

Ikkinchi o'rinda Vena va Syurix, uchinchi o'rinda esa Melburn qayd etilgan. Eng yaxshi o'nlikka, jumladan, Jeneva, Sidney, Osaka, Oklend, Adelaida, Vankuver kirdi. Reytingda so'nggi o'rinni Suriyaning Damashq shahri band etdi. Bundan tashqari, yashash uchun noqulay shaharlar o'ntaligida Tripoli, Dakka, Karachi, Jazoir, Lagos, Xarare, Port-Morsbi, Kiyev va Karakas qayd etilgan.

Aytilishicha, dunyodagi beqarorlik tufayli bu shaharlardagi turmush sharoitlari ketma-ket ikkinchi yil yaxshilanmayapti.

Tailand meva-sabzavotlari va serialariga taqiq qo'yildi

"The Guardian" nashrining xabariga ko'ra, Kambodjaning bu taqiqi Janubi-Sharqiy Osiyodagi qo'shnilar o'rtasidagi uzoq davom etgan chegaralar mojarosi tufayli yuzaga kelgan. May oyida qo'shnilar chegaradagi bahsli hududda qisqa muddatli otishma uyushtririb, Kambodja askarlari o'ldirilganida keskinlik avj olgan edi.

Tailand so'nggi kunlarda Kambodja bilan chegarada cheklovlar joriy qilgan. Kambodja esa Tailand filmlarini televideniye va kinoteatrlarda ko'rishni taqiqladi, chegara nazorat punkтини yopib, ushbu mamlakatdan internet o'tkazuvchanligini qisqartirdi.

Tailand meva va sabzavotlari uchun taqiqi 17 iyundan kuchga kirdi.

Internet xabarlar asosida Sharofiddin TO'LAGANOV («Xalq so'zi») tayyorladi.

O'zbekiston oliy ta'limida tarixiy natija:

«QS World University Rankings – 2026» ro'yxatiga 7 ta OTM kiritildi

Kecha e'lon qilingan "QS World University Rankings – 2026" natijalariga binoan, O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasasi dunyoning eng yaxshi universitetlari ro'yxatidan o'rin oldi.

Xushxabar

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xabariga ko'ra, mazkur ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 5 ta universitetga ortib, O'zbekiston ushbu reytingda ilk bor ishtirok etgan universitetlar soni bo'yicha jahonning 9 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

- Reytingga kiritilgan O'zbekiston OTMlari:**
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti – 469-o'rin (2025 yilda – 547);
 - O'zbekiston Milliy universiteti – 721 – 730 (2025 yilda 781 – 790)
 - Toshkent davlat texnika universiteti – 901 – 950 (ilk bor)
 - Samarqand davlat universiteti – 1001 – 1200 (ilk bor)
 - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – 1001 – 1200 (ilk bor)
 - Toshkent davlat transport universiteti – 1201 – 1400 (ilk bor)
 - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti – 1401+ (ilk bor)



Alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning 4 ta oliygohi "Bitiruvchilar yutuqlari" indikator bo'yicha "TOP – 700"talikka kirgan:

- Toshkent davlat texnika universiteti – 540-o'rin;
- O'zbekiston Milliy universiteti – 545-o'rin;
- "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti – 644-o'rin;
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – 660-o'rin.

2026 yil 1 yanvardan davlat organlari faolligining milliy reytingi joriy etiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqida ma'lumotlarni yubkib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir R. Bobojonov.
Musahhib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.45 Topshirildi – 01.20 **1 2 3 4 5 6**